



OMMAVIY TADBIRLAR JARAYONIDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFIGA OID FIKR VA MULOHAZALAR

RUSTAM ASTANOV _____

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot

instituti mustaqil izlanuvchisi

"Mirzo Ulug'bek" tum., "Buyuk ipak yo'li" ko'chasi, 243-uy

KIRISH: Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'yimaslik imkonini berdi.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro



terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Shu jihatdan ommaviy tadbirlar jarayonida ham jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek ushbu tadbirlarni o'tkazishda sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasini samaradorligini oshirish ichki ishlar organlari faoliyatining muhim yo'nalishlardan biri sanalib, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM: Ma'lumki, mamlakatimizda har yili 20 mingga yaqin ommaviy, siyosiy, madaniy, milliy, kasbiy va sport tadbirlari o'tkazilmoqda. Ushbu tadbirlarda o'z navbatida umumiy hisobda 90 mlndan ziyod ishtirokchilar qatnashmoqda[1].

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi O'RQ-371-sonli qonunining 3-moddasiga asosan huquqbuzarlik deb sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi[2].

Ommaviy tadbirlar, keng ko'lamli yig'ilishlar, mitinglar, demonstratsiyalar va boshqa shunday jarayonlar jamiyatda ijtimoiy va siyosiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadbirlarda huquqbuzarliklar, ya'ni qonun buzish holatlari sodir etilishi ehtimoli katta. Shu jihatdan tadqiqotimizda ommaviy tadbirlar jarayonida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning kriminologik tavsifi, ularning sabablari, turlari va profilaktik choralariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ommaviy tadbirlar vaqtida huquqbuzarliklarning turlari ko'p bo'lishi mumkin. Ular faqat jinoiy qonunlarni buzish bilan chegaralanib qolmay, ayrim hollarda ijtimoiy-axloqiy prinsiplarga ham zid bo'lishi mumkin. Ommaviy tadbirlar jarayonida sodir etiladigan huquqbuzarliklar shunday turlarga bo'linishi mumkin:

Ommaviy tadbirlarda ko'pincha xavfsizlikka tahdid soluvchi harakatlar sodir



etiladi, bu esa jismoniy zarar yetkazishga olib kelishi mumkin. Masalan, odamlar o'rtasida o'zaro nizoni hal qilish maqsadida zo'ravonlik harakatlari. **Mulkka zarar yetkazish** – ko'pincha ommaviy tadbirlarda qatnashuvchilarning qaysidir guruhlar davlat yoki xususiy mulkka zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishi mumkin.

Ommaviy tadbirlar jarayonida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning kriminologik tavsifi ularning paydo bo'lishiga olib keluvchi sabablarni aniqlash va tushunishga yo'naltirilgan. Ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchi shaxslar ko'pincha yoshlar, jamiyatning kam ta'minlangan qatlamlari yoki diniy yoki siyosiy harakatlardan ta'sirlangan bo'lishi mumkin. Ommaviy tadbirlar ko'pincha nomoddiy va aniq aniqlanmagan maqsadlar bilan o'tkaziladi. Bu omillarning ta'sirida ishtirokchilar o'zlarini jamoatchilikning umumiy manfaatlariga xizmat qilayotgan yo'lda deb his etishadi va huquqbuzarlikka yo'l qo'yishlari mumkin. Ommaviy tadbirlarda ishtirok etish, u yerdagi atmosfera, odamlar o'rtasidagi emotsiya va hamkorlik, shuningdek, boshqalarning ta'siri shaxsga huquqbuzarlik qilishga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, guruhning ijobiy yoki salbiy ta'siri insonning xatti-harakatini o'zgartirishga olib keladi[3].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ommaviy tadbirlarni quyidagi belgilari bo'yicha tasniflash mumkin:

- mazmuni va yo'naltirilganligi bo'yicha;
- ahamiyati bo'yicha;
- o'tkazilishining davriyligi bo'yicha;
- yuzaga kelish usuli;
- ishtirok etish imkoniyati bo'yicha.

Ommaviy tadbirlar ilmiy jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1) mazmuniga ko'ra:

a) ijtimoiy-siyosiy ommaviy tadbirlar – namoyishlar, mitinglar, yurishlar, konferensiyalar va boshqalar.



b) Sport ommaviy tadbirlari – ko‘p sonli tomoshabinlar ishtirokida o‘tkaziladigan sport musobaqalari.

v) Madaniy-ma’rifiy ommaviy tadbirlar – teatr, tomosha, konsert, sayllar va fuqarolarni xordiq chiqarish uchun turli badiiy jamoalarning chiqishlari.

g) diniy ommaviy tadbirlar – diniy bayram marosimlariga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar.

d) Professional bayram – qonunchilik va boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan kunlarda kasb bayramini nishonlashga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar.

2) Ahamiyatiga ko‘ra ommaviy tadbirlar:

– xalqaro ommaviy tadbirlar;

– umumdavlat ahamiyatidagi ommaviy tadbirlar;

– hududiy va mahalliy ahamiyatga ega ommaviy tadbirlar.

O‘tkazilishini qonuniyligi jihatidan ommaviy tadbirlarni – ruxsat etilgan yoki ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlarga ajratish mumkin.

Ruxsat etilmagan ommaviy tadbir – noqonuniy tadbir hisoblanib, ichki ishlar organlari va milliy gvardiya xodimlari tomonidan zudlik bilan to‘xtatish choralari ko‘riladi.

Ruxsat etilgan ommaviy tadbirlar – o‘tkazish vaqtida ichki ishlar organlari tomonidan xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash borasidagi ishlar uch bosqichda amalga oshiriladi: tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish va yakuniy bosqichlar.

3) Ommaviy tadbirning o‘tkazilish joyi bo‘yicha – binolarda, sport komplekslarida va boshqa joylarda o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlarga bo‘lingan bo‘lsa, yuzaga kelish usuliga ko‘ra – tashkillashtirilgan va to‘satdan yuzaga keladigan ommaviy tadbirlarga tasniflash mumkin.

Lekin amaldagi normativ–huquqiy hujjatlarda miting, namoyishlar, to‘g‘risida tushunchalar berilmaganligi hamda to‘y va dafn etish bilan bog‘liq marosimlarda yig‘ilayotgan tadbirlar yoki ushbu tadbirlar o‘tkaziladigan joylar



to'g'risida ham aniq ta'rif va huquqiy normalar belgilanmagan[4].

Shu bois, bizningcha, qonunchilikda «Yig'ilish», «Miting», «Namoyish», «Piket», «Ko'cha yurish» kabi siyosiy harakatlarni har biriga alohida ta'rif berilishi lozim.

Yig'ilish – jamiyat uchun muxim bo'lgan muayyan bir masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun fuqarolarning maxsus ajratilgan yoki buning uchun moslashtirilgan joyga birgalikda hozir bo'lishlari;

Miting – ijtimoiy – siyosiy masala xususiyatiga ega bo'lgan dolzarb muammolar bo'yicha ijtimoiy fikrini oshkora bildirish uchun fuqarolarning muayyan joyda ommaviy ravishda hozir bo'lishlari;

Namoyish – bir guruh shaxslarning harakat vaqtida plakatlari, transporantlar va boshqa ko'rgazmali tashviqot vositalaridan foydalangan hamda ijtimoiy kayfiyatlarni uyushgan holda oshkora ifodalashi;

Piket – harakatsiz va ovoz kuchaytiruvchi texnik vositalardan foydalanmagan holda, piket qilinayotgan ob'ekt oldida plakat, transporant va ko'rgazmali tashviqotning boshqa vositalaridan foydalanuvchi bir yoki undan ortiq fuqarolarni joylashtirish orqali amalga oshiriladigan oshkora fikr bildirish shakli;

Ko'cha yurishi – fuqarolarning muayyan muammolarga e'tiborini tortish maqsadida avvaldan belgilangan yo'nalish bo'yicha ommaviy ravishda o'tishidir.

Xalqimizning milliy qadriyatlarini va an'analarini inobatga olgan holda mamlakatimizda o'tkaziladigan fuqarolarni to'y-xasham va maraka tadbirlarini ham ommaviy tadbirlarni o'tkazish to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Qonun loyihasida to'y-xasham va maraka tadbirlari tushunchasi hamda ularni o'tkazish tartibi alohida moddalar bilan ko'rib chiqilishi lozim[5].

To'y-xashamlar – jismoniy shaxslar tomonidan oilasi bilan bog'liq nikoh, sunnat to'ylari, tug'ilgan kun, yubiley (o'z uyida o'tkaziladiganlari bundan mustasno)ga aytiladi.

Tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yong'in, jamoat tartibini ommaviy



buzish holatlarida odamlarning xayoti, sog‘lig‘i va huquqlarini saqlash va muxofaza qilish, moddiy boyliklarni asrash, xayoti, sog‘lig‘i va huquqlarini saqlash, muhofaza qilish moddiy boyliklarni asrash, davlat korxonalari faoliyatini ta‘minlash bilan bog‘liq qonunlarda nazarda tutilgan chora– tadbirlar amalga oshiriladi[6].

Maxsus holatlarda jamoat tartibini ta‘minlash bo‘yicha qonunlarda nazarda tutilgan dolzarb chora–tadbirlar ro‘yxatining o‘zi, avvalo, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini muhofaza qilishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi[7]. Shu bilan birga, mazkur chora tadbirlar jamoat tartibini lozim darajada qayta tiklash, aholining xotirjamligini, davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati uchun normal sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgandir.

XULOSA: Shunday qilib, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligi bir–biri bilan uzviy bog‘langan ijtimoiy xodisa bo‘lib, ularni ta‘minlash va muhofaza qilish bo‘yicha kompleks chora – tadbirlarni yakdillik bilan amalga oshirilishini taqozo qiladi.

Jamoat tartibi va xavfsizligini mustahkamlash masalalari davlat va jamiyat doimiy e‘tibori predmeti hisoblanadi. Davlat fuqarolarni qonun va odob-axloq normalariga hurmat, qonunbuzilishiga nisbatan muvosiisiz bo‘lish, jamoat tartibi va xavfsizligini muhofaza qilishda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalashga katta e‘tibor beradi. Bugungi kunda butun dunyoda fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. Ayni paytda, har bir fuqaroning jamoa, davlat va umuman jamiyat oldidagi mas‘uliyati oshib bormoqda. Davlat va jamiyat hayotining huquqiy asosini mustahkamlashga, tartib–intizomni, qonunbuzarlikka qarshi kurashni kuchaytirishga yo‘naltirilgan qonunchilik, tashkiliy va tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, **ommaviy tadbirlar jarayonida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning kriminologik tavsifini bayon etishda ommaviy tadbirlarning mazmuniga ko‘ra, ahamiyatiga ko‘ra, o‘tkazish joyiga**



ko‘ra uning xususiyatlarini aniqlash profilaktik chora-tadbirlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Xudoyberdiev A.A. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ma’muriy-huquqiy ta’minlashni takomillashtirish: yurid. fanlari bo’yicha falsafa d-ri (PhD) dis. avtoref. – T., – 2020. – B. 52;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-371-sonli qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 29.07.2014 yildagi 205-son
4. Xudoyberdiev A.A. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ma’muriy-huquqiy ta’minlashni takomillashtirish: yurid. fanlari bo’yicha falsafa d-ri (PhD) dis. avtoref. – T., – 2020. – B. 52;
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekistonda-ommaviy-tadbirlarni-otkazish-vaqtida-jamoat-tartibini-saqlash-va-xavfsizligini-taminlashning-oziga-xos-xususiyatlari>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/16/mass-events/>
7. Aytbayev Sanjar Sadullayevich. “Ommaviy tadbir” tushunchasi, turlari va o‘ziga xosliklari // O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi // So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7-jild 2-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.02.2024.